



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 57-60 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA AKSIYALAR BOZORIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING KELGUSI NATIJALARI



Alikulov Azamat Tuygunovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD, dotsent.

ORCID- ID: 0000-0001-7717-3274

azamat1441@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston aksiyalar bozorining 2020–2025-yillardagi transformatsiya jarayonlari ko'rib chiqildi. Tahlillar doirasida infratuzilma aksiyalar bozoridagi islohotlar, onlayn platformalari orqali birimlarning o'sish sur'atlari, xususiylashtirish va xalqaro IPO rejalari o'rganildi. Xulosa qismida bozorning institutsional barqarorligi, investorlar ishonchi va xalqaro integratsiyaga asoslangan istiqbollari bo'yicha xulosalar shakllantirildi hamda zaruriy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. Aksiyalar bozori, transformatsiya, infratuzilma, onlayn savdo platformalari, individual investorlar, investorlar huquqlari, dipozitary, kliring, IPO, xususiylashtirish, sandbox, regulyator.

Аннотация: В данной статье рассмотрены процессы трансформации рынка акций Узбекистана в 2020-2025 годах. В рамках анализа были изучены реформы рынка акций инфраструктуры, темпы роста сделки по онлайн платформам, приватизация и планы международных IPO. В заключительной части были сформулированы выводы по институциональной стабильности рынка, доверию инвесторов и перспективам международной интеграции, а также выработаны необходимые рекомендации.

Ключевые слова. Рынок акций, трансформация, инфраструктура, платформы онлайн-торговли, индивидуальные инвесторы, права инвесторов, депозитарий, клиринг, IPO, приватизация, песочница, регулятор.

Abstract: This article examines the processes of transformation of the stock market of Uzbekistan in 2020-2025. As part of the analysis, the reforms of the stock market infrastructure, The growth rate of sales on online platforms, privatization and plans for international IPOs were studied. In the final part, conclusions were formulated on the institutional stability of the market, investor confidence and prospects for international integration, and the necessary recommendations were developed.

Keywords. Stock market, transformation, infrastructure, online trading platforms, individual investors, investor rights, depositary, clearing, IPO, privatization, sandbox, regulator.

Kirish

Bugungi kunda aksiyalar bozori Aksiyadorlik jamiyatlari uchun kapital shakllantirish va iqtisodiy o'sish uchun muhim savdo maydonchasi hisoblanadi. O'zbekistonda 2025-yilga mo'ljallangan xususiylashtirish dasturlari, yangilanayotgan CSD (Markaziy depozitariy) va clearing markazi [2] kabi infratuzilma islohotlari bozor salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ammo hozirgi kunda O'zbekistonda ushbu savdo maydonchasining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga ba'zi obyektiv va subyektiv sabablar to'sqinlik qilmoqda. Bular jumlasiga aksiyalar bozorining asosiy salbiy holatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: likvidlikning pastligi, IPO-faoliyatini cheklanganligi, xorijiy investorlar uchun noqulay infratuzilma sharoitlari, shuningdek, institutlar va regulyator borasidagi mavjud muammolar [1] savdo jarayonlarini tashkil etish hamda unda ishtirok etishda ba'zi noqulayliklarni yuzaga keltirib qo'ymoqda. Shu boisdan ushbu maqolada bugun mamalakatimizda aksiyalar bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning kelgusida bozor faoliyatiga ta'sirini ko'rib chiqishni maqsad qildik.

Metodologiya

Fond bozori kapitalizasiyasi, aksiyalar bo'yicha savdo hajmi, IPOlar o'tkazish bo'yicha hukumat qarorlari, reja va dasturlar o'rganildi. [3] Shuningdek, amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va xususiylashtirish dasturlari, bozorda shaffoflikni oshirishga qaratilgan o'zgarishlar, xalqaro listing talablarini O'zbekistonda joriy etish rejalari tahlil qilindi. [4]

Natijalar

2024-yilda Toshkent respublika fond birjasida aksiyalar bilan savdolar hajmi rekord darajada o'sib 19 trln. so'mdan ziyodni tashkil etib 2023-yilga nisbatan 7,3 martaga oshgan. Bu kabi yuqori o'sish sur'atiga Korea fond birjasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hamda smartfonlar orqali savdolar qilish imkoniyatini kengaytirgan APP dasturlarining tizimga integratsiya qilinganligi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. [3]

Toshkent RFBda aksiyalar bozorining 2020-2024yillik savdo jarayonlari ko'rsatkichlari. [5]

		2020	2021	2022	2023	2024
Savdolar hajmi	<i>mln so'm</i>	510 800	1 147 110	4 705 790	2 620 570	19 182 120
O'rtacha kunlik savdolar hajmi	<i>mln so'm</i>	2 003	4 588	19 052	10 567	77 347
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	14,2	16,1	58,4	6,4	43,2
Bitimlar soni	<i>dona</i>	35 983	71 187	80 652	411 393	443 849
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	141	285	327	1 659	1 790

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki yillar kesimida aksiyalar savdosi hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, ayniqsa 2024-yilda yuqori o'sish holati kuzatilgan.

Shuningdek, 2025-yil birinchi yarim yillikda savdolar hajmi 12.02 trillion so'mni tashkil etib 2024-yil 1-yarim yillikdan 17 barobar ko'proq o'sish sur'atiga erishilgan, [6]

Aksiyalar bozorining kapitallashuvi 2024-yil yakunlari bo'yicha 242,4 trln. so'mni (\$18,8 mlrd) tashkil etib 43 foizga oshdi. YaIMga nisbatan esa 16,7 foizni tashkil etdi. 2025-

yilda bozor kapitalizatsiyasi taxminan 20,06 mlrd dollar bo'lishi kutilmoqda, ushbu ko'rsatkich 2026-yilda 21,6 mlrd. dollarga yetishi "statista.com" jamoasi tomonidan prognoz qilinmoqda, yillik o'sish sur'ati esa 7,7% bo'lishi kutilmoqda [7].

O'zbekistonda 2025–2028 yillar oralig'ida 12 yirik davlat korxonasi IPO orqali davlar ulushidagi 10–25 foiz aksiyalarini sotilishi belgilab qo'yildi (shu jumladan NMMC va UzNIF) [8] Dunyoning yirik aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalaridan biri Franklin Templeton 1,7 mlrd dollarlik O'zbekistonga tegishli davlat aktivlari paketini transformatsiya qilish hamda investitsion jozibadorligini oshirish uchun o'z boshqaruviga olishi rejalashtirilmoqda. [9]

2025-yilda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi hamda Markaziy bank egaligiga o'tkazilishi shuningdek, O'zbekiston Respublika valyuta birjasi ta'sischi ligida Milliy kliring markazi aksiyadorlik jamiyati tashkil etilishi hamda Markaziy bank tomonidan Milliy kliring markazi faoliyatini tartibga solishi Prezident qarorida belgilab qo'yildi.[10] Kapital bozori infratuzilmasida bu kabi o'zgarishlar aksiyalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini osonlashtirish orqali aksiyalar savdosi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda kapital bozorida bo'layotgan islohotlari natijasida mamlakat jahon bozorida investitsiya jihatdan ochilayotgan frontier bozor sifatida tan olinmoqda. 1,5 mlrd dollarlik yevroobligatsiyalar chiqarilishi, 1,7 mlrd dollarlik xususiylashtirish jarayonlari, fintech va xususiy sektor ulushini oshirish rejalari bugun dunyo etirof etmoqda.[11]

Tahlil

Aksiyalar bozorini kelgusida rivojlantirish uchun ommaviy savdolar (IPO va SPO) bo'yicha takliflarning orttirish hamda mobil savdo platformalari orqali ro'yxatdan o'tishni kengaytirish (soddalashtirish, yangi dasturiy vositalar APPlarni joriy etish) orqali individual investorlarni savdolarida faolligini oshirish hisobiga erishish maqsad qilinmoqda. O'tgan 2024-yilda Elektron savdo, mobil ilovalar cheklovlarini kamaytirish orqali individual investorlar faoliyatiga turtki berilib, savdo hajmi sezilarli darajada oshdi. Ammo hozirgi vaqtda xorijiy investorlar bozorga kirishida murakkabliklar mavjud (alohida depozitariy tizimlar, cheklangan clearing integratsiyasi kabi), bu investor ishonchiga salbiy ta'sir qilishi va xorijiy investorlarni savdolarida ishtirok etishini kamayishi (o'smasligiga) sabab bo'lmoqda.

Davlat korxonalarining IPOlari kapital bozoriga qo'shimcha turtki berish patensialiga ega yirik instrument hisoblanadi, biroq bu jarayon uchun mustahkam huquqiy kafolat, shaffoflik va xalqaro ekspertlar ishtiroki talab qilinadi. Ushbu masalalarning yechilishi IPOlardan ijobiy natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Infratuzilma bo'yicha tuzilgan rejalar amalga ohsa (sandbox, regul'yator huquqlari kengayishi), bozor yanada barqarorlashadi va investor himoyasi kuchayadi, bu esa investorlar faolligini oshirishi shubhasiz.

Xulosa va takliflar

Ushbu maqola orqali O'zbekiston aksiyalar bozorining rivojlanish istiqbollari bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. 2024–2025-yillardagi savdo hajmining oshishi va bozor kapitalizatsiyasi ijobiy trendni ko'rsatmoqda.

2. Xususiylashtirish va IPOlar bo'yicha reja (dastur va qaror)lar O'zbekistonda yangi investitsiya imkoniyatlarini ochishini va aksiyalar bozorining likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini prognoz qilishga zamin yaratadi.

3. Infratuzilma va reguliator islohotlari bozor rivojiga turtki berishi, ro'yxatga olish mexanizmini soddalashtirish, investorlar mulkiy huquqlari himoyasini mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

Tahlillar natijasida quyidagi tavsiyalarni berishni joiz ko'rdik:

1. Bozorda Makaziy dipozitariy bo'yicha birlashtirilgan infratuzilmani joriy etishni (CSD, clearing) va bu bo'yicha ham xalqaro integratsiyani tezlashtirish zarur;

2. Davlat korxonalarining IPOlari jaraonlarini soddalashtirish va bir tizimga keltirish zarur (har bir loyiha uchun alohida mexanizm, cheklov yoki imtiyozlarning har xil bo'lishiga yo'l qo'yimaslik muhim);

3. Kapital bozori reguliatori masalasini hal etish, bu borada qonunchilikni mustahkamlash va shaffoflikni oshirish zarur;

4. Listing bo'yicha xalqaro kompaniyalar orqali chet el fondlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dilnozakhon Mukhitdinova, Ibrokhim Avezov, DEVELOPMENT OF COMMERCIAL BANKS' SECURITIES ISSUANCE ACTIVITIES, European Journal of Economics, Finance and Business Development: Vol. 3 No. 6 (2025): EJEFBD
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.09.2023 yildagi PQ-291-son
3. Uzbekistan Eyes Bond Market and Major IPOs in Capital Market Expansion- <https://uz.kursiv.media/>
4. Franklin Templeton to list \$1.7bn of Uzbekistan state assets - <https://www.ft.com/>.
5. PRESS-RELIZ: 2025-YIL I-YARIM YIL YAKUNLARI- <https://www.uzse.uz/>
6. Press-reliz 2025 1-yarim yil yakunlari- <https://www.uzse.uz/>
7. Stocks – Uzbekistan- <https://www.statista.com>
8. Uzbekistan to conduct IPOs of 12 major state-owned companies between 2025 and 2028- <https://www.uzdaily.uz/>
9. Franklin Templeton to list \$1.7bn of Uzbekistan state assets <https://www.ft.com/>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023-y. PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
11. Uzbekistan makes the case for frontier markets- <https://www.ft.com/>
12. Aliyev, M. R. (2023). Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(9).
13. Aminov, F. B. (2023). Living Standard of Population in Uzbekistan. International Journal of Scientific Trends, 2(10), 40-46.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

